BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA GAP BO‘LAKLARINI O‘RGATISHDA BIRLAMCHI OMIL.

Iroda Isroilova
Olmazor tumani 46-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gap bo‘laklarini aniqlashning asosiy omillari va metodlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Gap bo‘laklarini belgilashda qo‘llaniladigan turli usullar — so‘roq berish, so‘z turkumi, so‘zlarning gapdagi o‘rni, morfologik shakl hamda sintaktik aloqa asosida aniqlash yo‘llari yoritib beriladi. Tadqiqotda sintaktik aloqa asosidagi usul eng ishonchli va samarali metod sifatida asoslanadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gap bo‘laklarini to‘g‘ri aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va mashqlar taklif etiladi.*

Tayanch tushunchalar: *bosh bo’lak, ikkinchi darajali bo’lak, sintaksis, so‘z turkumi, qo’shimchalarning ma’no turlari, inversiya, sintaktik aloqa.*

Abstract. *This article analyzes the main factors and methods of determining sentence parts from a theoretical and methodological perspective. Different approaches to identifying sentence parts, including question-based analysis, word class identification, word position in a sentence, morphological forms, and syntactic relations, are discussed. The study substantiates that the method based on syntactic relations is the most reliable and effective approach. In addition, practical recommendations and tasks aimed at developing primary school pupils’ skills in correctly identifying sentence parts are proposed.*

Key concepts: *main sentence parts, secondary sentence parts, syntax, parts of speech, semantic types of affixes, inversion, syntactic relations.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные факторы и методы определения членов предложения. Анализируются различные способы выявления членов предложения, такие как постановка вопросов, определение по частям речи, позиции слов в предложении, морфологическим признакам и синтаксическим связям. Обосновывается, что метод определения членов предложения на основе синтаксической связи является наиболее точным и эффективным. Также предлагаются практические рекомендации и задания, направленные на формирование у младших школьников навыков правильного определения членов предложения.*

Ключевые понятия: *главные члены предложения, второстепенные члены предложения, синтаксис, части речи, типы значений аффиксов, инверсия, синтаксическая связь.*

Kirish.

Gap bo'laklari gapda egallagan mavqeyiga qarab ikki turli bo'ladi: **bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar.**[1] Gapda mustaqil so'zlar bir-biri bilan bog'lanib ma'lum bir grammatik vazifa bajaradi.[2] Gap bo'laklarini to'g'ri belgilash muhimdir, chunki bu jarayon bevosita gap mazmuniga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'quvchilar ikkinchi sinfdan boshlab gap haqida nazariy tushunchalar ola boshlaydilar. Ular dastlab gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildiruvchi so'zlarni ajratishni o'rganadilar. Gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shu jarayondan boshlanadi va bu jarayon gap bo'laklarini o'rgatishda poydevor vazifasini o'taydi. Uchinchi sinfga kelib esa gapning asosini tashkil qiluvchi bo'laklar ikki guruhga: bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratilib o'qitiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar nomi aytilmaydi, lekin to'rtinchi sinfda ularning mohiyati to'la tushuntiriladi. O'quvchi olgan bilimlariga asosan gap bo'laklarini qiyinchiliksiz belgilay olish ko'nikmasini egallab, yuqori sinfga o'tadi. Afsuski, yuqori sinflarda bu jarayon har doim ham shu tarzda davom etavermaydi.

Aniqlanishicha, o'quvchilar yuqori sinflarda gap bo'laklarini belgilashda boshlang'ich sinfdagi xususiy tushunchalariga suyanib qolib birmuncha xatoliklarga yo'l qo'yishmoqda. Ya'ni, doimiy bo'lmagan, lekin ko'p hollarda to'g'ri natija keltiruvchi ikkilamchi omillarning har doim ham amalda to'g'ri natijalar beravermasligini unutib qo'yishayapti yoki yaxshi anglab yetishmayapti. Shu o'rinda ko'p uchrayotgan ayrim xatolarga to'xtalmoqchimiz.

Eng ko'p uchrayotgan xatoliklardan biri bu gap bo'lagini **so'z turkumi bo'yicha** belgilashdir. Bunga ularning ongida o'rnashib qolgan ot doim ega, fe'l esa kesim, sifat aniqlovchi, ravish turkumidagi so`zlar hol vazifasini bajaradi degan fikrmalar va so'z turkumi va gap bo'lagi tushunchalarining umumiy va farqli jihatlarini to'la anglab yetmayotganliklari sabab bo'lmoqda. Albatta, bu usul ham qaysidir o'rinlarda belgilovchiga yordam beradi. Chunki rostdan ham so'z turkumlarining barchasida asosiy sintaktik vazifa mavjud. Boshqa o'rinlarda uchrayotgan xatoliklar esa quyidagilar: so'zning **morfologik shakliga** qarab belgilash, masalan, bosh kelishikdagi so'zni doim ega deb bilish, o'rin-payt, jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlarni esa doim to'ldiruvchi deb hisoblashlari (vaholangki, ushbu va boshqa shu kabi qo'shimchalarni qabul qilgan so'zlar ko'pincha bir vazifada kelsa-da, istalgan o'rinda istalgan gap bo'lagi bo'lish imkoniyatiga ham ega); **so'zning gapdagi o'rniga** ko'ra belgilashlari, misol uchun, gap oxirida keluvchi so'zni kesim deb bilish, gap boshidagini esa ega deyish va hokazo. Aytish kerakki, bunday usul odatdagi tartibdagi gaplarda o'rinlidir. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga gap bo'laklarini belgilashda birlamchi omilni

[1]M. Hamrayev. Ona tili. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2011. 102-bet.
[2]M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev, D. Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. Toshkent, "IQTISOD-MOLIYA" 2006. , 212-b.

aniqlab berish va ularga o'quvchilarni sintaksis bo'limiga tayyorlashda ko'maklashish muhimdir. Buning uchun, avvalo, xatoliklarning umumiy sabablarini va gap bo'laklarini belgilashda qanday omillar mavjudligini aniqlash kerak. Shunda beshta asosiy omil mavjudligining guvohi bo'lamiz. Bular: gap bo'laklarini so'roq berish usulida aniqlash, gap tarkibidagi so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubliligiga ko'ra belgilash, so'zlarning gapdagi joylashgan o'rniga qarab gap bo'laklarini aniqlash, gap bo'laklari orasidagi sintaktik aloqaga ko'ra belgilash va so'zlar tarkibidagi qo'shimchalarning turi bo'yicha belgilash. Xo'sh, ulardan qay biri eng ishonchli va birlamchi bo'la oladi? Keling, aniqlashga urinib ko'raylik.

1. So'roq berish usuli. So'roq berish usulidan foydalanib har doim ham to'g'ri qilavermaymiz, chunki bir xil so'roqqa javob bo'luvchi so`zlar har doim ham bir turdagi gap bo'lagi bo'lib kelavermaydi. Masalan: *Kutubxona uchun kitoblar oldik* va *Sog'ingani uchun keldi* kabi gaplardagi ***nima uchun?*** so'rog'iga javob bo'luvchi *(kutubxona uchun, sog'ingani uchun)* qismlar ikki turdagi (to'ldiruvchi, hol) gap bo'lagi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning ko'pchiligi bu usuldan doimiy foydalanadi. Chunki boshlang'ich sinfda har bir bo'lakning xususiy so'roqlari (ega uchun *kim? nima?,* kesim uchun *nima qil(ayapti, moqchi)di?* kabilar tuzilib, o'quvchilar shu so'roqlar asosida gap bo'lagini belgilashga o'rgatiladi. Usuldan foydalanuvchi o'quvchi darsliklardagi mashqlarni xatosiz bajaradi, negaki boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlar shunga moslashtirilgan. Bir so'roqqa javob bo'luvchi turli bo'laklar haqida ma'lumot faqatgina yuqori sinflarda beriladi, lekin o'quvchi oldin qo'llagan va o'zi o'rgangan usulini tark etmaydi. Shunday ekan, belgilovchida ushbu usuldan ongli foydalanish malakasini shakllantirish muhimdir.

2. So'z turkumi bo'yicha belgilash. So'zlarning qaysi turkumga mansubliligiga qarab ham gap bo'laklarini belgilash to'g'ri emas. Masalan, *Onam oqila ayol* va *Ayol muqaddasdir* gaplarida bir so'z *(ayol)* ikki gapda ikki turdagi (kesim va ega) gap bo'lagi bo'lib kelgan. Biroq boshlang'ich sinf darsliklaridagi mashqlarning deyarli barchasida ega ot bilan, kesim fe'l bilan va hokazo ifodalangan va gap bo'laklari va so'z turkumlari o'rtasida o'ziga xos mutanosiblik saqlangan. Noodatiy ifodalanishlar uchramaydi va shuning uchun ham o'quvchi bu usulni to'g'ri deb hisoblaydi va yuqori sinflarda ham undan foydalanadi.

3. So'zlarning gapdagi o'rniga ko'ra belgilash. O'quvchilarning ko'pchiligi gap bo'laklarini so'zlarning gapdagi o'rniga ko'ra belgilaydi, chunki odatiy tartibdagi gaplarda ushbu usuldan foydalanish qulay. To'rtinchi sinfgacha bo'lgan darsliklarda esa tahlil uchun asosan odatiy tartibdagi gaplar beriladi. Ammo so'zlarning gapda joylashgan o'rniga ko'ra ham gap bo'laklarini aniqlash maqsadga muvofiq emasligini o'quvchiga amaliy isbotlab berish kerak. Chunki, masalan, *Quyosh chiqar, yer yuziga nur sochmoq uchun* kabi gaplarni ushbu usuldan foydalanib tahlil qiladigan bo'lsa, hol *(nur sochmoq uchun)* ni kesim, kesim *(chiqar)* ni esa hol deb belgilab, xatolikka yo'l qo'yishi mumkin.

4. So'zlarning morfologik shakliga ko'ra belgilash. So'zlarning qanday qo'shimchalar qabul qilganligiga ko'ra ham gap bo'lagini belgilash yuqoridagilar kabi ba'zida

bizga yordam bersa-da, ba'zi bir hollarda xatolikka yo'l qo'yishimizga olib keladi. Masalan, *Ma'lumotlarni kitoblardan* (to'ldiruvchi) *o'qib bildik* va *Bizda ham bu kitoblardan* (ega) *bor* gaplaridagi kitoblardan so'zi tarkibidagi chiqish kelishigi qo'shimchasi belgilovchini chalg'itishi aniq. Chunki, odatda, ushbu qo'shimcha qo'shilgan so'zlar to'ldiruvchi yoki hol sifatida tahlil qilinadi.[3]

5. Gap bo'laklari orasidagi sintaktik aloqaga muvofiq belgilash usuli. Ushbu usul haqida gapirishdan oldin ilmiy adabiyotlarda gap bo'lagiga beriladigan ta'rifni eslaylik: **gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan (ya'ni, gap tarkibidagi so'zlar bilan aloqaga kirishgan) so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deyiladi.**[4] So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, to'ldairuvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi.[5] Buning uchun, avvalo, ushbu usulning boshqa usullarga o'xshash va farqli o'rinlarini to'g'ri tushunib yetish muhim. Chunki gap bo'laklari orasidagi aloqani aniqlashda o'rni kelganda gap tarkibidagi so'zlarga so'roq berishga, muammoli vaziyatlarda diqqatni so'zlarning boshqa bo'laklarga nisbatan joylashgan o'rniga qaratishga, so'z tarkibidagi qo'shimchalarning grammatik ma'nosini hisobga olishga to'g'ri keladi. Oddiy gaplarda gap bo'laklarini ular orasidagi aloqaga muvofiq belgilashga har doim ham ehtiyoj bo'lavermaydi. Ushbu usulga ehtiyoj ko'pincha murakkab muammoli vaziyatlarda tug'iladi va undan foydalanish bizni ortiqcha xatolikka yo'l qo'yishdan saqlaydi. Shunday ekan, belgilovchining ushbu usulni puxta o'zlashtirishi muhimdir. Ushbu usuldan foydalanish ko'nikmasini oson va tez rivojlantirishning eng samarali yo'li bu inversiyaga uchragan gaplarni ko'proq tahlil qilishdir. Masalan, *O`chmasin yongan chirog'ing gapi* inversiyadan chiqarilganda quyidagicha bo'ladi: *Yongan chirog'ing o'chmasin.* Inversiya esa, bizga ma'lumki, asosan she'rlarda kuzatiladigan jarayon.

Demak, boshlang'ich sinf darsliklariga tahlil uchun oddiy gaplar o'rniga ko'proq she'riy parchalar berganimiz ma'qulroqdir. Shunda ularda turli vaziyatdagi bo'laklarni sezish, fahmlab to'g'ri belgilash ko'nikmasi paydo bo'ladi. Chunki bunday gaplarda gap bo'lagining ifodalanishi erkin bo'ladi. So'zning turkumi, tarkibidagi qo'shimchasi, gapdagi o'rni yoki so'rog'i masalasi o'z ahamiyatini yo'qotadi va so'zlar o'rtasidagi o'zaro munosabat asosiy o'rin kasb etadi. Birgina shu usulni qo'llash orqali biz o'quvchilarda qolgan usullardan ham to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirishimiz mumkin. Masalan, so'roq berish usulidan tobe qismni aniqlash jarayonida ya'ni, hokim so'zga qarab so'roq berib, uning ma'nosini

[3]T. G'afforova va boshqalar. Ona tili (1-sinf uchun darslik). "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2010. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili (2-sinf uchun darslik). "Cho'lpon", 2005. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova. Ona tili (3-sinf uchun darslik). "O'qituvchi", 2008.R. Ikromova va boshqalar. Ona tili (4-sinf uchun darslik). "O'qituvchi", 2007. Ushbu darsliklardagi materiallarga asoslandik.
[4]M. Hamrayev. Ona tili. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2011. 102b.
[5]M. Hamrayev. Ona tili. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2011. 101-102b.

aniqlayotgan, to'ldirayotgan, izohlayotgan bo'lakni topishda foydalanishimiz va bu orqali gap bo'laklari bilan paralel tarzda o'rgatiladigan so'z birikmasi mavzusini mustahkamlashimiz mumkin. Shuningdek, bu tahlil jarayonida o'quvchilarda gap bo'laklarining turli turkumga oid so'zlardan tashkil topishi mumkinligi haqida kengroq tasavvur uyg'onadi. Bu jarayon yuqori sinflarda o'tiluvchi otlashish mavzusining o'rgatilishiga zamin yaratib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik aloqa haqida to'laroq tushuncha hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

a) ega va kesimdan tashkil topgan yig'iq gapga mos ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib yoyiq gapga aylantirish;

b) inversiyaga uchragan gaplarni oddiy tartibdagi gaplarga aylantirish;

c) tushirib qoldirilgan bosh bo'laklardan birini mavjud bo'lakka qarab tiklash;

d) berilgan so'zlarni barcha gap bo'laklari o'rnida qatnashtirib gaplar tuzish;

e) bir xil so'roqqa javob bo'luvchi ikki turdagi gap bo'laklari mavjud gaplarni tahlil qilish;

f) bir so'roqqa javob bo'luvchi ikki turdagi gap bo'laklari ishtirok etgan gaplar tuzish;

g) kesim gap boshida kelgan gaplar tuzish;

h) ega gap oxirida kelgan gaplar tuzish;

i) aniqlovchi o'z aniqlanmishidan keyin kelgan gaplardan aniqlovchini aniqlash;

j) to'ldiruvchi va holning noodatiy joylashuvidan tashkil topgan gaplarni tahlil qilish.[5]

Hozirda sintaktik aloqa usulini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirishning sodda ko'rinishlarini ishlab chiqish yuzasidan boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan hamkorlikda izlanishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qiish metodikasi.Toshkent, "NOSHIR" nashriyoti, 2009.
2. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev, D. Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. Toshkent, "IQTISOD-MOLIYA" 2006.
3. M. Hamrayev. Ona tili. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2011.
4. T. G'afforova va boshqalar. Ona tili (1-sinf uchun darslik). "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
5. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili (2-sinf uchun darslik). "Cho'lpon", 2005.
6. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova. Ona tili (3-sinf uchun darslik). "O'qituvchi", 2008.
7. R. Ikromova va boshqalar. Ona tili (4-sinf uchun darslik). "O'qituvchi", 2007.

[5]K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.Toshkent, "NOSHIR" nashriyoti, 2009. 277-283-betlarda berilgan metodik tavsiyalarga asoslandik.